

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 2



19. J.Ro'ziyev BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA KOMPOZITSIYANING O'RNI VA AHAMIYATI.....	119
20. Islomova Madina Asqarovna NEMIS MATBUOT MATNLARIDA KOMIZMNING TURLARINING QO'LLANILISHI.....	122
21. Hamroyeva Maftuna Rasulovna LAQABLARNING ANTROPONIMIK BIRLIK SIFATIDA LISONIY TIZIMDAGI O'RNI VA SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	130
22. Dushanova Nargiza Mamatkulovna THE DEVELOPMENT OF HIGHER-ORDER COGNITIVE COMPETENCIES THROUGH THE PHENOMENON- BASED LEARNING APPROACH.....	135
23. Mardanova Guljahon Furqatkizi EXPRESSION OF THE CONCEPT OF "WEALTH" IN PAREMIOLOGICAL UNITS OF UZBEK LANGUAGE..	143
24. Mardonova Sitora Mardonovna SEMANTIC DEVELOPMENT OF THE VERBS "FEORRIAN, FYRSIAN, FEORSIAN" AND VERBS OF DIRECTION, WHICH ARE INCLUDED IN 4 CATEGORIES OF OLD ENGLISH.....	149
25. Mamajonov Muhammadjon Yusubjonovich MULOQOT BOSQICHLARINING PSIXOLINGVISTIK TALQINI.....	157
26. Бўронов Назим ФЕЙК ВА ДЕЗИНФОРМАЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШДА МЕДИАСАВОДХОНЛИКНИНГ ВАЗИФАЛАРИ.....	163
27. Narzullaeva Diyora Zayniddin kizi STRUCTURAL ANALYSIS OF POTTERY TERMINOLOGY IN DIFFERENT LANGUAGE SYSTEMS.....	169
28. Islombek Raxmonberdiyev Ilxom o'gli SAMYUEL F. HANTINGTON SIVILIZATSIYALAR TO'QNASHUVI PARADIGMASI IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI.....	175
29. Bobonazarova Gulxayo Habibulla qizi KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING KELIB CHIQISHI VA UNGA HISSA QO'SHGAN TILSHUNOSLAR.....	184
30. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna, Davlatova Komila Abdusattorovna KOREYS TILIDAGI METAFORA HODISASIDA KO'CHMA MA'NOLI SO'ZLAR XUSUSIDA.....	189
31. Kuvondikova Gavhar Isomiddinovna TALABALAR NUTQINING TA'LIMIY KORPUSINI YARATISHNING NAZARIY MASALALARI.....	197
32. Burxonov Utkir Farxod o'g'li ISPAN TILIDAGI ARABIZMLARNING FONETIK TASNIFI.....	205
33. Muxamedjanova Sh.B. XITOIY TILIDA INTERNET LINGVISTIKASI XUSUSIYATLARI.....	209

16. Норриск 2004 — Норриск Н. Р. Нон-вербал хумор анд жоке перформансе //Humor. 2004. Вол. 17. № 4 .Yumor: do i posle ironii 253
17. Hutcheon 1994 — Hutcheon L. Irony's Edge: The Theory and Politics of Irony. L.; N.Y., 1994.



ISSN: 2181-9297


www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Hamroyeva Maftuna Rasulovna

Buxoro davlat universiteti,
O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
g-mail: maftuna130193@gmail.com
ORCID 0000-0002-6008-4678

LAQABLARNING ANTROPONIMIK BIRLIK SIFATIDA LISONIY TIZIMDAGI O'RNI VA SOTSIOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada laqablarning badiiy asar tilida pragmalingvistik, sotsiolingvistik, linvomadaniy qirralarni ochishga xizmat qilishi haqidagi fikr-mulohazalar misollar asosida izohlangan.

Ism – inson ruhiyatini ifodalovchi vosita, ishonch ifodachisi sanaladi. Yozuvchi badiiy asarlaridagi ba'zi insonlar ismi bilan tug'ildi, ba'zilar ismi bilan ulg'aydi, ba'zilar esa ismiga mos yashadi. Ko'rinadiki, badiiy asarlarda qo'llangan kishi ismlari, umuman, atoqli otlar faqat nominativ vazifa emas, balki bir qancha funksional-uslubiy xususiyatlarni ham ifodalashga xizmat qiladi. Laqablarni esa uslubiy sema ifodalovchi unsur sifatida baholash mumkin. Maqolada badiiy asarlarda qo'llanilgan laqablardan misollardan keltirilib ularning lingvistik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Til, onomastika, antroponimika, sema, tilshunoslik, ism, nominativ, lingvistik, uslub, badiiy, yozuvchi.

Хамроева Мафтуна Расуловна

Бухарский государственный университет,
Узбекское языкознание и журналистика
доцент кафедры, ф.ф.ф.д. (Кандидат наук)
g-mail: maftuna130193@gmail.com
ORCID 0000-0002-6008-4678

РАСПОЛОЖЕНИЕ И СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НИКАМИ КАК АНТРОПОНИМНЫХ ЕДИНИЦ В ЯЗЫКОВОЙ СИСТЕМЕ

АННОТАЦИЯ

В статье на основе примеров поясняется мнение о том, что прозвища служат для раскрытия прагмалингвистических, социолингвистических, лингвокультурных аспектов в языке художественных произведений.

Имя считается средством выражения человеческой психики, выражением доверия. Кто-то в творчестве писателя родился со своими именами, кто-то вырос со своими именами, кто-

то жил согласно своим именам. Представляется, что личные имена, употребляемые в художественных произведениях, в целом имена собственные, выполняют не только номинативную функцию, но и выражают ряд функциональных и стилистических особенностей. Прозвища можно оценивать как элемент, представляющий стилистическую тему. В статье приведены примеры прозвищ, используемых в произведениях искусства, и предоставлена информация об их языковых особенностях.

Ключевые слова. Язык, ономастика, антропонимия, сема, лингвистика, имя, номинатив, языковой, стиль, художественный, писатель.

Khamroyeva Maftuna Rasulovna

Bukhara State University,

Uzbek linguistics and journalism

associate professor of the department, f.f.f.d. (PhD)

g-mail: maftuna130193@gmail.com

ORCID 0000-0002-6008-4678

LOCATION AND SOCIOPRAGMATIC CHARACTERISTICS OF NICKNAMES AS ANTHROPONYMOUS UNITS IN THE LINGUISTIC SYSTEM

ABSTRACT

In the article, the opinion that nicknames serve to reveal pragmalinguistic, sociolinguistic, lingucultural aspects in the language of artistic works is explained on the basis of examples.

The name is considered a means of expressing the human psyche, an expression of trust. Some people in the writer's artistic works were born with their names, some grew up with their names, and some lived according to their names. It seems that personal names used in artistic works, in general, proper nouns, serve not only a nominative function, but also express a number of functional and stylistic features. Nicknames can be evaluated as an element representing a stylistic theme. The article gives examples of nicknames used in works of art and provides information about their linguistic features.

Keywords. Language, onomastics, anthroponymics, sema, linguistics, name, nominative, linguistic, style, artistic, writer.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikning muhim amaliy masalalaridan biri badiiy asar tilini o'rganish bo'lib, bu shoir yoki yozuvchining o'ziga xos badiiy vositalarini aniqlash bilan tilda bu vositalardan samarali foydalanishga yordam beradi. Har bir yozuvchi, shoirning o'ziga xos yo'li, badiiy uslublari, tili bo'ladiki, u umumxalq tili qonuniyatlarga bo'ysunadi, unga asoslanadi. Shuningdek, yozuvchi, shoir umumxalq tilidagi ifodalash vositalaridan o'zicha foydalanadi. Bu esa badiiy til masalasida bir qancha o'z yechimini kutayotgan muammolarning o'rganilishiga yoxud adabiy til ravnaqiga sezilarligina ta'sir ko'rsatadi. Shu jarayonda muallifning asarda antroponimik birlik bo'lgan laqablardan foydalanishida ham o'ziga xoslikni ko'rishimiz mumkin. Xususan, badiiy asarda qo'llangan laqablarni amaliy jihatdan o'rganish va tatbiq qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular asar tilining milliylikka va xalq turmush tarzi-yu urf-odatlariga qay darajada bog'liqligi, mosligini ko'rsatib beruvchi vosita sanaladi.

Laqab termini grek tilidan o'zlashgan bo'lib, psevdos – yolg'on, uydirma + onoma – nom ma'nosini anglatadi. N.V.Podolskaya psevdonimni uydirma, o'ylab topilgan nom, soxta nom ma'nolarida tushuntirgan[3,40].

Ism va laqablar tilda real mavjud nomlardir. Ism va laqab orasida quyidagi farqlar bor:

1. Har bir odamning alohida shaxsiy ismi bo'lishi shart. Ammo laqabi bo'lishi, albatta, shart emas.

2. Ism bolaga chaqaloqlik davridan beriladi. Laqabning qo'yilish payti aniq va qat'iy emas. U kishi umrining turli davrida ma'lum asos, sababga ko'ra qo'yiladi.

3. Kishining ismi, asosan, bitta bo'ladi, laqabi esa birdan ortiq bo'lishi mumkin[2,54].

Laqab soʻzi “Navoiy asarlari lugʻati”da izohlanmagan. “Navoiy asarlari tilining izohli lugʻatida “laqab – laqab, nom” deyilgan sodda izoh mavjud, “alqob” – 1) nomlar, taxalluslar; 2) sifatlash, maqtash soʻzlari” deb izoh berilgan.

Laqablar funksional-nominativ vazifadan tashqari, uslubiy vazifa ham bajara oladi. Shunga koʻra, oʻzbek tilida mavjud boʻlgan laqablar badiiy adabiyot tilida uslubiy badiiy vosita sifatida qoʻllanadi. Badiiy adabiyot tiliga kirgan laqablar asarda ishtirok etuvchi asar qahramonlari, personajlarining xarakterini ochishda, ularni satirik, yumoristik vaziyatlarda tasvirlashda, asar tiliga emotsional-ekspressiv ruh bagʻishlashda muhim rol oʻynaydiki, laqablarning uslubiy xususiyatlari badiiy tilda, ayniqsa, shaxslarning salbiy xususiyatlarini tasvirlash, asar qahramonlarining, qolaversa, yozuvchining laqab egasiga munosabatini ifodalashda juda qoʻl keladi.

Asosiy qism. Tohir Malikning “Devona” qissasidagi laqablarning qoʻllanilishi sababini ifoda etuvchi parchaning tahlili: Jarchilar Buxoro saltanatida “Shakkok” paydo boʻlgani, Vobkent minorasi sirtida tik yurgani, amir hukmi bilan bugun uning ulkan minoraga roʻpara qilinajagini kallayi saharlab fuqaroga maʼlum etdilar [13,6].

Adib Lukn deb nomlangan oʻzga sayyoralikni “Shakkok” deb ataydi: “Kemaning uchburchak shaklidagi asosiy xonasida Buxoro xalqini sarosimaga solgan “Shakkok” – Tang sayyorasining elchisi Lukn boshini egib oʻtirardi” [13,8]. Ijodkor qahramonga uning yer haqidagi nojoiz fikrlari sababli shu laqabni qoʻygan.

Rhaq obrazi esa Tabib afandi va Mirzavoy deb tilga olinadi: Burni anchayin beoʻxshov, qulogʻi esa, aksincha, kichik, koʻzlari botiqroq, rangi oq-sariqqa moyil, dam haddan ziyod sekin, dam sakraguday boʻlib yuradigan Rhaq “Tabib afandi” degan nom bilan tez orada el ogʻziga tushdi [13,17]. Bu obraz yerga ikkinchi bor kelganida “Tabib afandi” nomidan voz kechib, shifokor sifatida kasalxonaga ishga kiradi. Shunda ismini Mirzaqayum Toʻxtamirzayev deb oʻzgartiradi: Rhaq bir necha kun Buxoroda boʻlib, oʻzgarishlarning barchasini fahmlab oldi. Endi u “Tabib afandi”ning “kuni tugaganini” bilardi. Shuning uchun kiyimlarini oʻzgartirib oldi. – Ha, bor. Ismim Mirzaqayum. Mirzaqayum Toʻxtamirzayev. – Boʻpti, qishloqchasiga Mirzavoy, deyaveramiz. Maʼqulmi, ketdik” [13,245]

Qoʻllangan Mirzavoy ismini laqab yoki taxallus deb emas, qisqartma ism sifatida uchinchi hodisa deb atash mumkin.

Asarda oʻzligini yoʻqotgan Sabohiddin obraziga nisbatan Devona laqabi ishlatiladi: U yangi orttirgan oʻrtoqlari bilan kun boʻyi Devonani ermaklab yurdi... Umida jinni ham biron narsadan xafa boʻlar, deb sira oʻylamagan edi [13,248].

Bu obraz boshqa oʻrinda Moʻylov deb ham tilga olingan: Demak, kelishdik. Xizmatdan soʻng Dilmurod Musayev rahbarligidagi vrachlar delegatsiyasi Moʻylov hazrati oliylarini lufan ishga taklif etgani boradi [13,203]. Bunday laqab qoʻyilishiga qahramonning tashqi koʻrinishi sabab boʻlgan.

Ijodkor asarlarida laqablarga izoh bergan oʻrinlar bor: Ikkalasi baravar ovoz bergan odamga qarashdi. Ular qamoqxonada “Ayiq” degan laqabni olgan, kelbati chindan ham ayiqni eslatuvchi, feʼli esa quturgan itnikidek boʻlgan bu badaxloq odamning shu tomonga kelayotganini koʻrishgan, ammo nariga oʻtib ketar, deb oʻylashgan edi. Chunki “Ayiq”ning shu paytgacha ular bilan ishi boʻlmagan edi. Ular javob berishga ulgurishmadi. “Ayiq”ning uzun qoʻli choʻzilib, Mirhosilning yoqasidan oldi. Rahmatulloh hayhaylab turgunicha Mirhosil bir-ikki musht yedi. Rahmatulloh “Ayiq”ning chayir qoʻllariga yopishdi. Lekin birodarini ajrata olmadi. “Ayiq” soʻkindi-da, tizzasini bilan uni turtib yubordi. Rahmatulloh tisarilib yiqildi, chakkasini soʻri qirrasiga urib olib, bir necha nafas hushini yoʻqotdi. Oʻziga kelganida “Ayiq” vazifasini ado etib boʻlib, joyiga qarab qaytib borardi [13,215].

Demak, ijodkor laqabdan obrazning tashqi koʻrinishi, harakati yoxud xarakter xususiyatini koʻrsatish uchun foydalanadi.

“Ov” qissasida “Komissar” va “Qizil komandir” deb nom olgan obrazlar borki, ularning qoʻllanilish sababi yozuvchi tomonidan quyidagicha izohlanadi: Mirhosil sezib yuribdi: Rahmatulloh komissarni yoqtirmaydi. Shundan boʻlsa kerak, uning takliflariga bepisand qaraydi. Qochishdan qoʻrqadimi yo komissarga ishonmaydimi? Barakda uni hech kim ismi bilan chaqirmaydi. Hamma “Komissar” deydi. Mirhosil uning chindan komissar boʻlgan-boʻlmaganini bilmaydi. Ammo katta papka qoʻltiqlab izvoshlarda, soʻng avtomobilda kerilib oʻtirganini koʻrgan” [11,7]. Adib bunday

sotqin kimsalarni umumiy tarzda lavozim bilan atagan. O‘sha davrdagi bu kasb egalarining aksariyati o‘z lavozimini hurmat qilmaydigan, kasbiy burchini suiiste‘mol qiluvchi shaxs ekanligiga yoxud uning o‘zini tutishi va yurish-turishiga ishora qilmoqchi bo‘lgan: Sotilishi bu qadar oson bo‘lgan odam qanday komissarlik qilgan, odamlarni nimalarga dav‘at etgan, bunga ergashganlar qanday ahmoqlar ekan? [11,10] Demak, bu obrazga nisbatan qo‘llangan laqab piching, kinoya, kesatiq ma‘nolarini ifodalash uchun qo‘llangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Jamiyatda laqablar shaxs nomini siqib chiqarish holatlari ham uchraydi. Bunda laqab o‘sha shaxsni ko‘rsatuvchi ismga aylanadi. Laqab kishi ismisiz ham o‘sha shaxsni ko‘rsata olishi va nutqiy vaziyatda o‘sha odam anglanishi mumkin. Bu holatni asarda o‘rinli qo‘llash esa ijodkorning o‘ziga xos mahoratini belgilaydi. Asar tilini jonli xalq tili bilan yaqinlashtiradi, milliy xalqona ruh baxsh etadi. Masalan, Qaysarligi oqibatida Sohib yana ikki marta kaltaklanib, og‘riq azobidan ihrab o‘tirganda unga ”Qorakuya” laqabli odam yaqinlashdi.. Sohib gaplashgisi kelmay, yuzini burgan edi, “Qorakuya” temirdek barmoqlari bilan uning iyagini ushlab, o‘ziga qaratdi. – Ha... To‘g‘ri, Minullinni tanimasligingiz mumkin, lekin “Qozon” deganni bilishingizni rad etolmasangiz kerak [11,60]. Ushbu misollarda Qorakuya, Minullin va Qozon nutqiy vaziyatda shaxs nomining funksiyasini ham bajargan.

Laqablardan badiiy detal sifatida foydalanish bo‘yicha Tohir Malik ijodida “Murdalar gapirmaydilar” qissasi alohida o‘ringa ega. Jumladan, qissada Puchoqburun, Eshshak, Bublik, Maymun, Bifshteks, Kum, Hamzat, Murik, Cho‘mich, Olov, Shimol, Garbuz, Oqqush, Janjal, Kalina, Qo‘tos, Koshak, Zolotoy, Gogik, Gobelyan, Udav, Kato, Kuyov, Yo‘lbars, Sibir, Avliyo, Mur kabi 30ta laqab qo‘llangan. Bu laqablarning ba‘zilarining qo‘llanish sababi adib tomonidan asarning turli o‘rinlarida izoh tarzda aytib o‘tilgan:

1. Pachoqburunning faqat burni emas, bilimi ham pachoqqina edi.
2. O‘chir deyapman! Menga qara, qaysarliging uchun senga “Eshshak” deb laqab berishgan. Xo‘sh eshshakligingcha qolasanmi yo biz aytgan yo‘lga yurasanmi?
3. Mushaklari o‘ynab turgan baland bo‘yli yigit hayallamadi. Har qanday raqibini qiymalab tashlashga qodir bo‘lgani uchun “Bifshteks” laqabini olgan bu yigit Tengizning birgina imosidan maqsadini anglab, jangga hozirlandi.
4. “Bu jonivor o‘z nomi bilan Murik! Sen esa uni itpashshaga o‘xshatyapsan. Itpashshalarni ranjitma [12,484]

Bu kabi laqablar qissada muhit (o‘g‘rilar) koloritini ko‘rsatish hamda insoniyligini yo‘qotgan, nomga noloyiq kimsalargina jamiyatda laqab bilan atalishga loyiqqligini ifodalash uchun qo‘llangan. Chin musulmon esa insoniylikni yo‘qotmaydi va laqab bilan nomlanishi mumkin emas. Chunki islomiy e‘tiqod bo‘yicha insonga laqab qo‘yish joiz ish emas. Uni nomi bilan atash maqbul. Zero, Hazrat Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”da shunday deydi: “Al-asmou tanzilu min-as-samo”, ya‘ni “Ismlar osmondan tushadi”. Tasavvuf ahli nomning ma‘noli va ko‘rkam bo‘lishi haqida gapirar ekan, kishilarning bir-biriga laqablar, haqoratli nomlar qo‘yishini va odamni o‘sha laqab bilan atashni nihoyatda qoralaydi. Ushbu fikrlar muqaddas Qur‘oni Karimdagi mana bu oyatda yorqin ifodalangan: “O‘zlarizingizni (ya‘ni bir-birlaringizni) mazax qilmanglar va bir-birlaringizga yomon laqablar qo‘yib olmanglar! Iymondan keyin fosiqlik bilan nomlanish (ya‘ni mo‘min kishining yuqorida man qilingan fosiqona ishlar bilan nom chiqarishi) naqadar yomondir! Kim tavba qilmasa, bas, ana o‘shalar zolim kimsalarning o‘zlaridir” (Hujorot surasi. 2-oyat).

Islomiy va dunyoviy ilmni puxta egallagan adib ana shu g‘oyaga tayanib ish ko‘rgan. Inson degan nomga noloyiq kishilarni laqab bilan atagan. Bu holatni Tohir Malikning “Talvasa”, “Shaytanat” asarlari misolida ham ko‘rish mumkin: 1. Ustozlari Bo‘ronga laqab berishda yanglishishmagan: bo‘ron kuchga kirib, daraxtlarni ildiz-pildizi bilan qo‘porib tashlashi arafasida tabiat ajib bir osudalikka bandi bo‘ladi [9,39]. 2. Yo‘q, bosqinchilik emas, hozircha mehmondorchilik, – dedi Akula ishshayib. Shunda uning laqabiga sabab bo‘lgan so‘yloq tishi ko‘rinib, xaridor ijirg‘andi [9,42]. 3. To‘rtinchi kuni bozorga tushib, Kesakpolvonga duch keldi. 4. Tomonlar orasidagi muzokara yakun topgach, Chuvrindi Asadbekning topshirig‘iga ko‘ra G‘ilayga “Men bilan yurasan”, dedi. G‘ilay bu amrga bo‘ysunmaganday Kesakpolvonga qaragan edi, u “Boraver, seni o‘zim topaman”, degan ma‘noda imlab qo‘ydi [10,634].

Jamiyatda o'z nomi bilan emas, laqab bilan yashash, salbiylik kasb etadi. Yozuvchi ham mana shu holatni jonlantirish, asar hayotiyligi, o'qishligini ta'minlash, kitobxonga mohiyatni asosli qilib ko'rsatish, qahramonlarning saviyasi, ongi, dunyoqarishini namoyon etish, ba'zi o'rinlarda yengil kulgi, ba'zi o'rinlarda esa achchiq kulgi, nafrat uyg'otish uchun qahramonlarni ba'zi o'rinlarda laqab orqali nomlashga ehtiyoj tug'iladi.

Badiiy asar tilidagi laqablar tadqiqi bir tomondan tilshunoslikning antroponimika sohasi uchun ahamiyatli bo'lsa, ikkinchi tomondan tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri – badiiy asar tili va yozuvchi uslubi muammosiga ma'lum bir aniqliklar kiritishda ahamiyatga ega. Badiiy asar tilida qo'llanilgan laqablarni o'rganish orqali o'zbek tili tarixida antroponimik birliklarning o'rnini belgilash, bugungi kunga qadar boshdan kechirgan fonetik, leksik va grammatik voqeliklar hamda semantik taraqqiyoti to'g'risida ma'lum bir xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi. Bu, albatta, masaladan ko'zlangan bir maqsad bo'lsa, ikkinchi maqsad antroponimning badiiy asar tilida qo'llanishini o'rganish bilan uning badiiy asar tilidagi ahamiyati belgilanadi va matnning lingvistik tahlili orqali badiiy matn mazmuni va g'oyasi aniqlanadi.

Antroponimning matndagi uslubiy qiymati, bajarayotgan vazifasi asar g'oyasini ochib berishdagi xizmatini aniqlash orqali shu asarning lingvostilistik xususiyati, asar muallifining individual uslubi haqida so'zlash mumkin bo'ladi.

Ko'rib o'tganimizdek til juda serqirra hodisa. Shuning uchun ham tilni xalq hayoti bilan bog'liqlikda o'rganish lozim. Buning uchun bizga birinchi navbatda badiiy asarlar yordam beradi. Badiiy asardagi antroponimik birliklar, xususan, laqablar ham mana shu millat, xalq hayoti va o'tmishidan olingani unda o'z aksini topadi. Xuddi shuning uchun ularni o'rganish va tadqiq qilish muhimdir. Bu orqali biz o'z milliy til unsurlarimiz va ulardan foydalanishda yana bir qadam oldinga siljiymiz.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mustaqillik davri o'zbek adabiyotini lingvistik tahlil qilish orqali asarda antroponimlar shaxs va jamiyat munosabatlarini ko'rsatuvchi detal bo'la olishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ulardan o'rinli foydalanish asar tilini jonli xalq tili bilan yaqinlashtiradi, ularni milliylikni ko'rsatuvchi qurol sifatida baholashimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. 2-нашри. – Тошкент: «O'zME», 2007. 604 б.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Т.: Фан, 2013. –264 б. –Б. 54.
3. Подольская Н.В. Проблемы ономастического словообразования (к постановке вопроса) // Вопросы языкознания. – 1990. – №3. – С. 40-54.
4. Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси. – Т.: «Бухоро», 2004.
5. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 67-б.
6. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2017. – B. 310.
7. Hamroyeva R. M. Application of Anthroponymic Units in the Works of Tahir Malik (On The Example of the Story "Devona") //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 8.
8. Rasulovna H. M. Use Of Anthroponyms In Tahir Malik's Stories //Journal of Contemporary. – 2021.
9. Tohir Malik. Talvasa. – Toshkent: Sano-standart, 2019. – 544 b.
10. Tohir Malik. Shaytanat. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 798 b.
11. Тохир Малик. Падаркуш. – Тошкент: Давр пресс, 2014. – 163 б.
12. Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. – Toshkent: Sharq, 2019. – 544 b.
13. Tohir Malik. Devona. Adabiyot uchqunlari. – T., 2018. – 335 b.
14. Zayniddinova B. G. Distinctive features of pleonasm in political speech //Intellectual Education Technological Solutions And Innovative Digital Tools. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 168-174.
15. Бозорова Г. З. Идейная направленность сказаний и преданий романа "Шайтанат" Тахира Малика //Молодой ученый. – 2014. – №. 9. – С. 532-534.



ISSN: 2181-9297


www.tadqiqot.uz

Dushanova Nargiza Mamatkulovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages

gdusha@internet.ru

THE DEVELOPMENT OF HIGHER-ORDER COGNITIVE COMPETENCIES THROUGH THE PHENOMENON-BASED LEARNING APPROACH

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ABSTRACT

The current article delves into questioning the importance of developing low-order and higher-order cognitive skills. Reliance on the acquisition of ready-made knowledge can be favorable in educational institutions because of easiness and resulting in faster outcomes compared to working on developing higher-order cognitive skills demanding a laborious effort and a lot of time. Yet, it highlights the importance of developing higher-order cognitive skills because of tangible results such as knowledge construction and thoroughly thought and reasonably-made decisions due to productive thinking. It also presents a system of tasks to develop higher-order cognitive competencies through the Phenomenon-based learning approach with designed examples based on the themes presented in the curriculum of Integrated language skills. An educational technique called "Engage, Explore and Discover" is given to navigate readers' attention through the steps of cultivating higher-order cognitive skills in the domain of the Phenomenon-based learning approach, a Finnish novel educational approach in which learners acquire and construct their own knowledge-based on real observation of events, objects, people rather than simply acquiring ready-made theoretical knowledge commonly witnessed case in an educational environment.

Keywords: Lower-order cognitive competencies, higher-order cognitive competencies, Phenomenon-based learning, subject competencies, knowledge construction, in-depth research, educational technique

Dushanova Nargiza Mamatkulovna

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti

gdusha@internet.ru

YUQORI DARAJADAGI KOGNITIV KOMPETENSIYALARNI FENOMENGA ASOSLANGAN TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Quyidagi maqola quyi va yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishning muhimligini tadqiq qiladi. Ta'lim muassasalarida tayyor bilimlarni o'zlashtirishga tayanish mashaqqatli kuch va ko'p vaqtni talab qiladigan yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish bilan solishtirganda oson va tezroq natijalarga olib kelishi tufayli qulay bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, maqola yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi, chunki bilimlarni qurish va samarali fikrlash tufayli puxta o'ylangan va oqilona qabul

qilingan qarorlar kabi aniq natijalar. Shuningdek, Integral til ko'nikmalari o'quv dasturida taqdim etilgan mavzular asosida ishlab chiqilgan misollar bilan Fenomenga asoslangan ta'lim yondashuvi orqali yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha vazifalar tizimini taqdim etadi. O'quvchilar e'tiborini Fenomenga asoslangan ta'lim yondashuvi sohasida yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish bosqichlari orqali o'tkazish uchun "Jalb et, o'rgan va kashf et" nomli ta'lim texnikasi berilgan. Ta'lim muhitida oddiy tayyor nazariy bilimlarni egallashdan ko'ra, hodisalarni, ob'ektlarni kuzatish, shaxslar bilan suhbat qurgan tarzda haqiqiy kuzatishga asoslangan o'z bilimlarini shakllantirishi mumkin.

Kalit so'zlar: Quyi darajadagi kognitiv kompetensiyalar, yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar, Fenomenga asoslangan ta'lim, mavzuni o'zlashtirishga doir kompetensiyalar, bilimni shakllantirish, izchil tadqiqot, ta'lim texnikasi

Душанова Наргиза Маматкуловна

Самаркандский государственный институт иностранных языков
gdusha@internet.ru

РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ВЫСШЕГО ПОРЯДКА С ПОМОЩЬЮ ФЕНОМЕНО-ОСНОВАННОГО ПОДХОДА ОБУЧЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье рассматривается вопрос о важности развития когнитивных навыков низкого и высшего порядка. Опора на получение готовых знаний может быть выгодна в образовательных учреждениях из-за легкости и более быстрого результата по сравнению с работой по развитию когнитивных навыков более высокого порядка, требующей кропотливых усилий и большого количества времени. Тем не менее, он подчеркивает важность развития когнитивных навыков более высокого порядка из-за ощутимых результатов, таких как формирование знаний, а также тщательно продуманные и разумно принятые решения благодаря продуктивному мышлению. В нем также представлена система заданий для развития когнитивных компетенций высшего порядка посредством феноменального подхода к обучению с разработанными примерами на основе тем, представленных в учебной программе интегрированных языковых навыков. Образовательная методика под названием «Вовлекай, исследуй и открывай» предназначена для того, чтобы направить внимание читателей на этапы развития когнитивных навыков более высокого порядка в области подхода к обучению, основанного на феноменах, нового финского образовательного подхода, при котором учащиеся приобретают и конструируют собственные знания, основанные на реальном наблюдении за событиями, предметами, людьми, а не просто на приобретении готовых теоретических знаний, что обычно бывает в образовательной среде.

Ключевые слова: Когнитивные компетенции низшего порядка, когнитивные компетенции высшего порядка, феноменологическое обучение, предметные компетенции, построение знаний, углубленное исследование, методика обучения

INTRODUCTION

Acquiring a proper and necessary skill is considered a prerequisite tool for learners in every stage of life. Equipping learners with appropriate skills and constantly enriching and refining them is the responsibility of teachers and educators in every stage of learning. From a five-year work experience in Higher Education, specifically at Samarkand State Institute of Foreign Languages, it has been observed that the given assignments are designed for the development of lower-order cognitive competencies namely, memorization, recalling, understanding, applying, and analyzing the knowledge.

Literature analysis

According to Millrood R., and Maksimova I., knowledge is regarded as the lowest level of learning outcomes in the cognitive process, which includes knowing common terms, specific facts,